

TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,  
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR  
VA ADABIYOTSHUNOSLIK  
MUAMMOLARI

**MATERIALLAR  
TO'PLAMI  
XIV**



**Адабиётлар рўйхати:**

1. Ғайбулла Саломов.Таржима ташвишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 15 б.
2. Рэй Брэдбери. “Марсга ҳужум”.”Янги аср авлоди”, - 2016 йил. – 6. Б.
3. I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: “Tafakkur bo'stoni”, 2012, – 104 В.
4. Гумбольдт Вильгельм фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва, 1984. – 61с.

*Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna,*  
**BDU, Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi**  
*Teshayeva Zebo Ilhomovna,*  
**BDU, Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi talabasi**  
**TILDA LAKUNALARNING ISHLATILISHI HAMDA O'ZIGA**  
**XOS XUSUSIYATLARI**

**Kalit so'zlar:** Lakuna, konsept, terminlashuv, konkretlashuv, realiya, muqobilsiz so'zlar, xarakterli so'zlar, leksik ifoda.

Biror xalqning maishiy-madaniy, ijtimoiy va tarixiy madaniyati uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'lmagan, so'z va so'z birikmalari lakuna hisoblanadi. Lakuna termini ilk bor kanadalik tilshunoslar tomonidan fanga kiritilgan. J.P Vine va J. Darbellar lakuna termini haqida quyidagicha ta'rif keltirgan: “ Bir tildagi so'z boshqa tilda o'z muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi”.[1] “V.G. Gak lakunalarni "tilning leksik tizimidagi bo'shliqlar, bor bo'lishi kerakdek ko'ringan so'zlarning mavjud emasligi”,- deb tushuntiradi. [2] Tadqiqotchi lakunalarni mazkur jamiyatda tushunchalarning mavjudligi, biroq ularni ifodalovchi so'zlarning yo'qligi, bunday tushunchalar uchun boshqa tilda alohida leksik ifodalarning mavjud bo'lishi deb hisoblaydi. Lakunalarga misol tariqasida fransuz tilida rus tiliga qiyosan **сутка** va **кипяток** so'zlarining mavjud emasligini keltiradi.[3] Lakunalar tilda zid so'zlar, lakunalar, oraliqlar yoki til xaritasidagi oq dog'lar, tarjimasiz so'zlar, muqobilsizlar, nol so'zlar yoki fonli leksika deb yuritilganini kuzatishimiz mumkin. S.Maxov va S.Florinlar lakuna hofisasini ifoda vositalarining alohida kategoriyasi bo'lgan realiyalar, ya'ni 'biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'lmagan siz va so'z birikmalari sifatida talqin qilishgan.[3] Muayyan xalqning madaniyatida boshqqa madaniyat vakillari

tomonidan qabul qilinmaydigan stereotip xarakteridagi bir qator o'ziga xos unsurlar mavjud bo'lib, Y.A. Sorokin va I.Y. Markovinalar tomonidan lakunalar deb nomlanadi. Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar asosan, tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida "yurist", "advokat" ma'nosini anglatgan lawyer so'zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodaladigan "attorney" vakil, barrister oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan advokat, solicitor mjozlar va tashkilotlarga maslahat beruvchi, quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega "counsel" yuristkonsult, counsellor "maslahatchi", "advocate" oliy darajadagi advokat kabi so'zlar ham qo'llaniladi. Mazkur ifodalarga o'zbek va rus tillaridagi faqat advokal so'ziga muqobil bo'la oladi.

O'zbek tilida onaning onasiga ham otaning onasiga ham buvi, onaning otasiga ham, otaning otasiga ham buva deyilsa, turk tilida anneanne, babaanne, koreys tilida otaning onasiga halmoni, otaning otasiga haraboji, onaning onasiga uihalmoni, onaning otasiga wharaboji deyiladi. Yoki koreys tilida cybba "aka" ayollarning, nuna "aka" erkaklarning onni "opa" ayollarning, nuna "opa" erkaklarning nutqida ishlatiladi.[4]

Jahon tilshunosligida muayyan xalqning tili bilan uning madaniyati, tarixi, urf-odati, turmush tarzi, an'analari va milliy qadriyatlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'lami kun sayin ortib bormoqda. Dunyo xalqlarining umuminsoniy, ma'naviy-madaniy qadriyatlari o'rtasidagi uyg'unlik va farqlarni aniqlash hamda har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish, adabiy tarmog'ini leksik birliklar hisobiga boyitish hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Aytilganidek, til va madaniyat o'rtasidagi aloqa masalasini tadqiq etish hozirgi tilshunoslik fanining eng muhim, dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Endilikda tilshunoslikning vazifasi til hodisalarini tavsiflash bilangina cheklanib qolmasligi ayon bo'lib qoldi. Tilga oid hodisalarni o'rganishda uning madaniyat bilan munosabatini yoritish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Antropotsentrik paradigma yo'nalishlaridan biri lingvokulturologiya fanining eng asosiy maqsad va vazifasi milliy madaniyatning til bilan o'zaro munosabati masalasini yoritishga qaratildi. Ularni yaxlit tizim sifatida ilmiy o'rganish paradigmasi yaratildi.

Ingliz tilshunosligida "lakuna" so'zi "lexical gap", "lexical hole", "lexical vacancy" terminlari bilan ifodalanadi. Ular orasida "lexical gap" terminining ko'proq qo'llanilishi kuzatiladi. Mazkur birikma tarkibidagi "gap" so'zi "bo'shliq", "bo'sh joy" degan ma'nolarni anglatadi. U turli aniqlovchilarni biriktirib, lakunalarning boshqa turlarini ham yuzaga chiqaradi. Masalan, "semantic gap", "cultural gap". Demak, "gap" so'zi

“lakuna” tushunchasiga sinonim sifatida qo'llanadi. “Gap” so'zining o'z aniqlovchisi bilan beriladigan so'z birikmalarini esa, lakuna turlariga (grammatik lakuna, madaniy lakuna va h.k.) muvofiq keladi, deb aytish mumkin.[5] XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda paydo bo'lgan lakuna termini lingvokulturologiya, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik kabi fanlarda va shu fanlar doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda faol qo'llanmoqda. Lakuna tushunchasini rus tilshunosligida I.A.Sternin, G.V.Bikova kabilar tomonidan maxsus o'rganilgan. I.A.Sternin ishlarida lakuna hodisasining lingvistik mohiyati ochib berilgan, uning ikki til doirasida emas, hatto bir til ichida ham kuzatilishi e'tirof etilgan. G.V.Bikova esa lakunaning voqelanishi, turlari va xususiyatlarini rus tilidagi faktik misollar bilan ko'rsatib o'tgan. [6]

Lakuna tushunchasining keng o'rganilishi, boshqa tushunchalar bilan ko'p qiyoslanishi hamda tillarni o'rganishdagi o'rni, ularning alohida bir lingvistik kategoriya sifatida keng tarqalishiga olib keldi. Dastlab barcha tarjimaga ega bo'lmagan so'zlar lakuna sifatida tan olindi, ammo keyinchalik lakuna tushunchasi chuqur o'rganildi hamda bu termin konkretlashtirildi. Mazkur jarayonda lakuna tushunchasining mohiyati aniq va ravshan ochib berildi. Lakunaning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular faqatgina muayyan xalqqa tegishli bo'ladi hamda boshqa xalqlar tiliga tarjima qilinmaydi, bunday so'zlarni faqatgina o'sha madaniyat egasi tushuna oladi. Bunday so'zlar realiyalarga yaqin turadi ammo o'rganilishi jihatdan umuman farq qiladi. Realialarning lakunalardan farqi, ular inson tassavvur qila olmaydigan tushunchalarda namoyon bo'ladi. Lakunalar esa xalq tilida va madaniyatida mavjud konseptlar asosida ammo boshqa xalq tiliga tarjima qilinmaydigan tushunchalar sifatida o'rganiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Vinav J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. \_paris, 19bg. \_p. 10.
2. Гак В.Г Сравнительная типология французского И русского языков, -Л,:”Просвешенио”, 1976, -С. 216
3. Usmonova. Lingvokulturologiya -2012,-B,130
4. Usmanova Sh. Madanoyatlararo muloqotda lakunalarning o'rni // Ilmiy maqolalar to'plami. V,-Toshkent.-“Akademnashr”2013,-B, 152-156
5. Vorob`ev V.V. Lingvokul`turologiya (teoriya i metodi). -M.: Izd-vo RUDN, 1997. -331 s.
6. Nazarova, N., & Yoqubovna, S. M. (2022). Lingvistikada lacuna muammosi. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 113-115.  
<http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/60>

7. Nazarova Navbahor Ahrorovna, & Akhmedova Marjona. (2022). Effective Language Learning. Eurasian Research Bulletin, 4, 104–107. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/435>
8. Khayriddinkizi, K. K. (2021). Strategies of Improving Writing Skill for B1 Learners. international conference on multidisciplinary research and innovative technologies, 2, 204–207. <http://mrit.academiascience.org/index.php/mrit/article/view/125>
9. Habibovna, U. Z., & Kamolovna, T. F. (2021, November). The Concept of Love in “Forty Rules of Love” By Elif Shafak. In International conference on multidisciplinary research and innovative technologies (vol. 2, pp. 124-125 <http://mrit.academiascience.org/index.php/mrit/article/view/106>
10. 1. Djalilova, Z. B. (2020). FLORA IN EDMUND SPENSER’S POETRY. Theoretical & Applied Science, (4), 371-375. [https://www.elibrary.ru/page\\_404.asp?qx=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D42831520](https://www.elibrary.ru/page_404.asp?qx=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D42831520).

*Sadikov Erkin Tursunovich,*

Buxoro Davlat Universiteti tadqiqotchisi

Telefon: +998936510730

Email: [sadikoverkin87@gmail.com](mailto:sadikoverkin87@gmail.com)

## **INKORNI IFODALOVCHI NUTQ AKTLARINING UMUMIY TAVSIFI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inkorni ifodalovchi nutq aktlarining xususiyatlari ochib berilgan bo’lib, ularning insonlar o’rtasidagi muloqotning ro’yobga chiqishida tovush, belgi va imo-ishoralarning ajralmas o’rni haqida so’z boradi. Mazkur elementlarni ifoda etishda har bir kishi o’ziga xos individual nutqiy ijroni amalga oshirishi ta’kidlab o’tiladi.

**Kalit so’zlar:** pragmatika, nutq aktlari, iltifot va inkorni ifodalovchi nutq aktlari, kommunikatsiya, ijtimoiylashuv, nutq vaziyatlari.

Inkorni ifodalovchi nutq aktlari biror bir ish (taklif, yumush, burch, iltimos, iltifot)ni bajarishga nisbatan hafsalasizlik, ishtiyoqsizlik, befarqlik natijasida hosil bo’lishi mumkin. Ammo ayrim kezlarda uzrli sababning ham mavjudligi bu turdagi nutq aktlarini harakatga keltirishi mumkin.

Inkorni ifodalovchi nutq aktlarini izchil tadqiq etish yigirmanchi asrning saksoninchi yillaridan ommalasha boshladi. Mazkur tadqiqotlarning aksariyati Viyerbeska<sup>1</sup> (Wierbicka)ning 1987-yildagi

---

<sup>1</sup> Wierbicka, A. (1991) .Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction .

---

Juraeva Makhliyo Rashidovna. Representation of a symbol in intercultural communication .....	65
Rakhmatova Mehriniso Musinovna. Buronova Guzaloy. The role of pragmatic competence in language learning at bukhara state university. 69	
Rakhmatova Mehriniso Musinovna, Bekmurodova Marjona. How english language learners improve their sociolinguistic competence .....	72
Raxmatova M.M., Yuldosheva Niginabonu. Problems faced by second language learners in uzbekistan when acquiring sociolinguistic competence .....	75
Xayrullayeva Gulasal. Intensivlik semantik-pragmatik kategoriya sifatida .....	79
Rajabova Maktuba. Structural and semantic analysis of english phraseological units with the meaning "Human character" .....	83
Sayitova K.H. Effect of time management on teaching and learning foreign languages .....	86
Караматова Зарина Фатиллоевна. Жаҳон адабиётида элегия жанри. 88	
A.A.Haydarov, D.U.Mansurova. Intonatsiyaning tasnifi va uslubiy xususiyalari .....	91
Umurova Xushvaxt Hakimovna, Qahhorova Guli. Yozuvning tilshunoslik va ruhshunoslik masalalari .....	94
Muxammadiyeva Nigina Maxmudovna. Emotivlik funksional-semantik kategoriya sifatida ifodalinishi .....	96
Navbahor Nazarova. Tilshunoslikda antroponimik birliklarning nazariy tadqiqi .....	99
Abdullayeva Gulnora Gaybulloyevna, Mirshayeva Nilufar Ilhom qizi. Kichik yoshlilarning chet tilini o'rganishida yosh xususiyatlarining ahamiyati .....	102
Зарина Ҳабибовна Усмонова. Таржимада таржимон улуши ва таржима хусусиятлари .....	105
Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna, Teshayeva Zebo Ilhomovna. Tilda lakunalarning ishlatilishi hamda o'ziga xos xususiyatlari .....	108
Sadikov Erkin Tursunovich. Inkorni ifodalovchi nutq aktlarining umumiy tavsifi .....	111
Saparova Mohigul Ramazonovna, Ruzimurodova Marjona. The importance of body language in communication .....	118
Зарнигор Джалилова Баходировна. Шахс ва жой номларининг гул номлари орқали ифодаланиши .....	120
Rasulova Nigina Alisherovna. Definitions given to the concept of "linguistic person" in modern linguistics .....	123

---